

MA'DANIY HOLDA O'SUVCHI MOYLI EKINLAR

*Sayfullayeva Tursunoy Ozod qizi*

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 2- bosqich magistranti*

*Tel: +998933036030*

*Qosimova Munira Haqberdi qizi*

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 2- bosqich magistranti*

*Tel: +998994745261*

**Annotatsiya.** Moyli ekinlar aholi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari bo'lib, ushbu mahsulotlar bilan aholini uzluksiz ta'minlash, shu orqali oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash masalasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining eng muhim vazilaridan biri sanaladi. Bugungi kunda ushbu mahsulotlarni yetishtirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish, zarur zaxiralarni shakllantirish, shu jumladan, buni xorijiy mamlakatlardan olib kirish orqali amalga oshirish choralari ko'rilmogda

**Kalit so'zlar:** ekstraksiya, presslash, tabobat, oziq-ovqat, parfumireya, mahsulot, material, chiqindi, konserva, konsentrat.

Moyli ekinlar — urug'i va mevasidan moy olish uchun ekiladigan ekinlar guruhi hisoblanadi. Moyli ekinlar turli botanik oilalar xususan, gulxayridoshlar (kungaboqar, maxsar), labguldoshlar (perilla, lallemsiya), butguldoshlar (raps, xantal), dukkaddoshlar (soya, yer yong'oq) va boshqa turli botanik guruhlarga mansub bir yillik va ko'p yillik o'simliklarni o'z ichiga oladi. Bulardan ba'zilari qotuvchi moy beradigan daraxtlar (kokos palmasi va moyli palma, kakao, tunga), boshqalari suyuq moy beradigan o'tsimon o'simliklar (soya, kungaboqar, zig'ir) hisoblanadi. Moyli ekinlar urug'i, mevalarida, ayrimlari (chufa) tuganaklarida moy to'playdi. Oqsil va uglevodlarga nisbatan yog'lar (o'simlik moyi) ko'p kaloriya saqlaydi. 1 g o'simlik moyida 39,8 kJ, 1 g oqsilda 18,4—23, 1 g uglevodlarda 16,7—17,6 kJ energiya saqlanadi. Turli moyli ekinlarning urug'lari va mevalarida, yog' miqdori turga, navga, tuproq-iqlim sharoiti, qo'llanilgan agrotexnikaga bog'liq holda 15,5—63,0 % o'zgaradi

Moyli ekinlar moylari suyuq, yarim suyuq va qotuvchi bo'lib, presslab yoki ekstraksiyalab olinadi. O'simlik moylari bevosita oziq-ovqat maqsadlarida, konservalar tayyorlashda, konditer mahsulotlari, margarin olishda, lok-bo'yoq, sovun pishirish, to'qimachilik, atir-upa sanoatlari, tibbiyotda, shuningdek, moylash materiallari sifatida ishlatiladi. Yog' moy ishlab chiqarish chiqindilaridan kunjara va shrot chorva mollari uchun konsentrat ozuqa hisoblanadi.

Moyli ekinlarning kelib chiqishi turlicha. Yovvoyi kungaboqarning vatani — Shimoliy Amerika. Kanakunjut va kunjut esa Afrikadan, raps va ko'knor O'rta dengiz atroflaridan tarqalgan, yer yong'oqning vatani — Janubiy Amerika; g'o'za Hindiston, Xitoy, Perudan tarqalgan. Jahon dehqonchiligida soya, yer yong'oq, kungaboqar, zaytun, raps, kunjut, kanakunjut, moyli zig'ir katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston florasida yovvoyi Moyli ekinlarning 500 turi aniqlangan. O'zbekistonda yog' moy sanoatining asosiy xom-ashyo bazasini bir yillik moyli ekinlardan g'o'za tashkil etadi. Shuningdek, zig'ir, soya, raps, kunjut, maxsar va boshqalarning urug'lari ham qayta ishlanadi. Ushbu ekinlarning urug'i va mevasi tarkibida 20-60% moy bo'lib, oziq-ovqatda, konserva ishlab chiqarishda, qandolat va non mahsulotlari tayyorlashda qo'llaniladi. Bundan tashqari, o'simlik moyi margarin, sovun, lak, buyoq, alif, linoleum ishlab chiqarishda, tabobatda, parfyumeriyada, teriga ishlov berishda qo'llaniladi. Moy ishlab chiqarilgandan keyin qolgan kunjara va shrot chorva mollariga yuqori to'yimli ozuqa hisoblanadi. Ayrim moyli ekinlar silos tayyorlashda qo'llaniladi. Yer yuzida moyli ekinlar ko'p tarqalgan, ekin maydoni 140 mln. ga dan ortiqdir. Eng ko'p tarqalgan ekinlar: soya (111,3 mln. ga), kungaboqar (20,6 mln. ga), maxsar (7,82 mln. ga), yeryong'oq (23,7 mln. ga), moyli zig'r (7,5 mln. ga), kunjut (9,4 mln. ga). Moyli ekinlar AQSH, Kanada, Hindiston, Braziliya, Argentina, Xitoy, Pokiston, Rossiya, Moldova va Ukrainada keng tarqalgan. O'zbekistonda moyli ekinlardan maxsar, kungaboqar, kunjut, yeryong'oq, moyli zig'r va soya ekilmoqda. . O' simlik moyi glitserinning moy kislotalari bilan birikishidan vujudga keladigan murakkab efilrardir. Yog' tarkibiga uglerod (75 -79%), vodorod (11-13%) va kislorod (10-12%) kiradi. Oqsil va uglevodga nisbatan moyning quvvati ikki-uch barobar ortiqdir. Moyning sifati ulaming tarkibidagi kislotalarga, ya'ni to'yinmagan (olein linoleum, linol) va to'yingan (palmitin, stearin) kislotalarga bog'liq. Moyli ekinlar tarkibidagi moyning miqdori, sifati yetishtirish sharoitiga bog'liq. 100 g moy qancha yodni qabul qilsa, shunga qarab yod soni aniqlanadi. Yod soni ko'p bo'lgan moy tez quriydi. Shunga qarab o'simlik moyi 3 guruhga bo'linadi:

- quriydigan moy (peri , lyalemansiya, rijik, zig'r m oyi)- yod soni 130 dan ortiq bo'ladi;

- yarim quriydigan moy-yod soni 85-130 bo'lib, bu oziqovqatda ishlatiladigan moy (kungaboqar, kunjut, soya, raps, xantal, maxsar);

- qurimaydigan moy (yeryong'oq va kanakunjut moyi)-yod soni 85 dan kam bo'ladi. Oziq-ovqatda va texnikada qo'llaniladigan moy tarkibida bog'lanmagan yog' kislotalar soni kam bo'lishi kerak. Bu moylarni neytrallashtirish yog' kislotalarini neytrallashtirish uchun sarflanadigan o'yuvchi kaliy miqdoriga qarab kislota soni aniqlanadi. To'la pishmagan urug'da kislota soni ko'p bo'adi. O'simlik moyi sovun ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Shu xususiyatga baho berish uchun sovunlanish soni

aniqlanadi. Bir gramm moy tarkibidagi bog'lanmagan va glitserin bilan birikkan holatdagi hamma yog' kislotalarni neytrallash uchun sarflangan uyuvchi kaliy miqdoriga qarab sovunlanish soni aniqlanadi. Texnikada qo'llanadigan moyda -kislota soni va sovunlanish soni yuqori bo'lgani ma'qul. Moyli ekinlar orasida efir moyli ekinlar ajralib turadi. Bu ekinlarning tarkibida (urug'ida, mevasida, bargida, poyasida) 5-7% efir moyi bo'ladi. Bu guruhning asosiy vakillari: arbabodiyon, kashnich, qora zira, yalpiz, oq ziradir. Efirmoyli ekinlar tabobatda, parfyumeriya va oziq-ovqatda qo'llanadi. Chiqindisi chorva mollariga yuqori sifatli ozuqa bo'lib hisoblanadi. Moyli ekinlar guruhini xilma-xil ekinlar tashkil qilgan. Bu ekinlar turli botanik oilalarga mansub (karamdoshlar, dukkakdoshlar, sutlamaguldoshlar va boshqalardir) bo'lib, morfologik va biologik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Shu guruhning vakillari: kungaboqar, maxsar, kunjut, yeryong'oq, soya, moyli, zig'ir, kanakunjut raps, oq xantal, xantal, perilla, rijik, lyallemansiya, fenxel, qora zira, arbabodiyon, kashnich, krambe. Ma'lumki, kundalik insonlar hayotida [faqat ikki xil moy ishlatiladi](#), bular o'simlik va hayvon moyi. Ammo, iqlim, agrotexnik tadbirlarga qarab o'simlik moyi 10 martadan 20 martagacha hayvon moyini yetishtirishga qaraganda arzonga tushadi. Hayvonlardan olinadigan moylarning tannarxi hamma vaqt yuqori bo'ladi. O'simlik moyi hazm bo'lish jihatidan ham hayvon moyiga qaraganda yengil hisoblanadi, hamda, tarkibida xolesterin moddasi yo'q. Yer yuzida moyli ekinlar 140 mln. gektar maydonga ekiladi. Eng ko'p tarqalgan soya (62,6 mln.ga), kungaboqar (18,3 mln.ga), raps (22,2 mln.ga), Yeryong'oq (21,8 mln.ga), moyli zig'ir (7,5 mln.ga), kunjut (6,8 mln.ga) yer maydonini tashkil etadi. O'zbekistonda, lalmi sharoitda zig'ir, kunjut va maxsar ekib kelinmoqda. Sug'oriladigan maydonlarda takroriy ekin sifatida kunjut, Yeryong'oq va soyani ekish mumkin. Mamlakatimizda asosiy moy beruvchi xom ashyo chigit hisoblanadi, garchand u moy olish uchun ekilmasada. Tolasi ajratib olingan chigitlar respublika aholisini moy bilan ta'minlovchi asosiy xomashyo hisoblanadi. Ushbu ekinlarning yangi xalq xo'jaligi uchun ahamiyatli navlarini yaratish aholining o'simlik moyiga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun zamin yaratadi.

#### Adabiyotlar ro'yhati

1. X.Atabaya, O.Qodirxo'jayev, O'simlikshunoslik T.Yangi asr avlodi 2006-yil.
2. O.Mirzayev, T.Xudoyberganov Yem- xashak o'simliklar –Andijon 2003- yil
3. X.Atabayeva va .boshqa o'simlikshunoslik, T. Mehnat 2004-yil
4. I.Karimov bir yillik va ko'p yillik mustaqil yurt g'allasi T. Uzbekiston 2003-yil
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. Enternet ma'lumoti.